

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablARI GEOGRAFIYA DARSALARIDA
GEOGRAFIK ATAMALAR VA TERMINLARNI YODDA SAQLASH
UCHUN YANGI METODLARDAN FOYDALANISH**

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi

Tel: +998901403566

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablari geografiya darsalarida geografik atamalar va terminlarni yodda saqlash uchun yangi metodlardan foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Atamalar va terminlar, eshitib o'rganish, yozib o'rganish, tinglab o'rganish, o'qib o'rganish

KIRISH

Bugungi rivojlanib borayotgan bir asrda umumiy o'rta ta'lif maktablarining darsliklari va ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlamoqda. Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" shiorining amaliy ifodasi sifatida prezident maktablari, turli ijod maktablari, ayrim fanlarga chuqurlashtirilib o'qitiladigan maktablар va umumiy o'rta ta'lif maktablari qurib, foydalanishga topshirilmoqda. O'qituvchi-pedagoglarning oylik maoshlari ham tobora ko'payib bormoqda. Albatta, bugungi kunda o'z ustida ishlamagan, xorijiy tillarning birontasini ham puxta o'zlashtirmagan o'qituvchi bo'lmasligi kerak. Chunki, zamon shuni talab qilmoqda. Ushbu umumiy o'rta ta'lif maktablari geografiya darslarida geografik atamalar va terminlarni yodda saqlash uchun yangi metodlardan foydalanish deb nomlangan maqolamizda ham yuqoridagi jihatlarga to'xtalib o'tishi ham o'rinni hamda dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

A.Musurmanovaning "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanmasining birinchi qismida Abu Ali Ibn Sino haqida to'xtalib o'tadi. Yozilishicha, Ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga bilim berishdek mas'uliyatli burchi bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lisch;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini

bilishi;

- 5) fanga qiziqtira olishi;
 - 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bilish;
 - 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
 - 8) har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lismiga erishish.
- Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:
- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
 - darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
 - o'quvchilarining qiziqshlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
 - o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;
 - ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarining rivojlanish darajasiga tayanish;
 - shaxsnинг har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
 - o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotSIONalligi;
 - pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
 - zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish;
 - mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
 - har bir darsni puxta loyihalahtirish, rejallashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Ulug'bekning fikricha, o'quvchi hayotida darslik muhim o'rinda turadi. Shunga ko'ra, har bir fan bo'yicha yaratilgan darslikda voqeа, hodisa yoritilishidan qat'iy nazar, unda hayotiy haqiqat, asosiy fikr, maqsad o'z ifodasini topishi kerakligini ta'kidlaydi. U darslik soda, tili ravon, mantiqiy izchillikda, o'qishli bo'lismini talab etadi. Ammo darslik qanchalik yaxshi bo'lmasin, ta'limda o'qituvchi asosiy o'rinda turishi, o'z pedagogik mahorati, yaxshi insoniy fazilatlari bilan o'quvchilarga na'muna bo'lishi kerakligini ifoda etadi. [1]

NATIJALARI VA MUHOKAMA

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni o'quvchi: manbani o'zi o'qiganida 10 %, ma'lumotni eshitganida 20 %, sodir bo'lgan voqeа, xodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %, sodir bo'lgan voqeа, xodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %, ma'lumot(axborot0larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %, o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega ekanligi haqida yozishgan. [2]

Umumiy o’rta ta’lim maktablari geografiya darslarida geografik atamalar va terminlarni yodda saqlash uchun quyidagi yangi metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bunga oid bo’lgan o’quv qo’llanmalarga misol tariqasida geografiya fanlari dots. A.Isayev va A.Arabboyevlar tomonidan yaratilgan “Tabiiy geografiyadan o’zbekcha-ruscha-inglizcha izohli lug’ati” va boshqa lug’atlarni keltirish mumkin.

1.Eshitib o’rganish metodi. Bizga ma’lumki, ushbu metodda geografiya faniga oid barcha atmalar va terminlarni audio orqali eshitib o’rganadilar.

2.Yozib o’rganish metodi. Ushbu metodda o’quvchilar o’qituvchi tomonidan aytilgan atamalar va terminlarni daftarlariiga yozib o’rganadilar.

3.Tinglab o’rganish metodi. Usulda geografiya xonasidagi televizor, kompyuter orqali atamalar va terminlarni ko’radilar. Ushbu usul o’quvchilarni dars davomida atamalar va terminlarni yaxshi o’zlashtirishga yordam beradi.

Masalan, Havo fronti – turli xususiyatlarga ega bo’lgan havo massalari bir-biri bilan tutashgan joylarda, oraliq zona. Ushbu terminni ya’ni havo fronti qanday hosil bo’lishi haqida videorolikni ko’rganida bu to’g’risidagi bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Ayrim geografik atamalarni bevosita tasvirini ko’rmay turib o’rganishni iloji yo’q. Masalan, Relyef, landshaft, flora, fauna, soy, daryo, kanal, drenaj, suv ombori, shahar, qishloq kabi atamalar.

4.O’qib o’rganish metodi. Bunda o’quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida kutubxonalardan geografiya fani atamashunosligiga oid kitob, jurnallar orqali qidirishadi. Internetda berilgan ma’lumotlar bilan birgalikda o’qib o’rganishadi.

Ba’zi atamalar olimlar tomonidan turli talqin qilinadi. Masalan, orol so’zi o’zbekchasiga bo’lsa, “ostrova” ruschasiga yoki o’zbeklar “Tinch okeani” deb atasa, ruslar “Tixiy okean” deb ataydilar. Atama va termin tushunchasi haqida turli fikrlar bor. Atamalarga misol tariqasida nisbiy namlik, mutloq namlik, geografik o’rin, foydali qazilmalar kabilar kirsa, terminlarga biosfera, gidrosfera, atmosfera, Uchsoy, Choch, Turkiston, Yaksart kabilar terminlar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, umumiy o’rta ta’lim maktablari geografiya darslarida geografik atamalar va terminlarni yodda saqlash uchun eshitib o’rganish, yozib o’rganish, tinglab o’rganish, o’qib o’rganish kabi metodlardan foydalanish orqali talabalarni mustaqillikka, intiluvchanlikka, shu bilan birga xorijiy tillarni ham yaxshi o’rganishiga hamda fanni mazmunini tushunib yetishiga erishishiga olib keladi. Bu esa o’qituvchi oldida turgan muhim vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Musurmanova “Umumiy pedagogika” o’quv qo’llanmasi 1-qism. Toshkent O’ZBEKKITOBSAVDONASHRIYOTI – 2020
2. X.B.Nikadambayeva, D.I.Ro’ziyeva, Z.A.Karabazov “O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi” ni interfaol metodlardan foydalanib o’qitish imkoniyatlari (uslubiy qo’llanma). Toshkent-2017. – 224 b.
3. Internet materiallari